

# **Ustyurt platosi bo'ylab media tur tashkillashtirildi**

Ustyurt platosi o'z bag'riga olam-olam sirlarini, tarixning ochilmagan jumboqlarini jamlagan. Hududning flora va fauna dunyosi ham o'ziga xos - kamyob o'simliklar va jonivorlar yashaydi. Bu erda davlat muhofazasi olingen hududlar ham mavjud.


22 - may Butunjahon biologik xilmaxillikni saqlash kuni munosabati bilan joriy yilning 15-16-may kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekoliya qo'mitasi va «Janubiy Ustyurt» milliy tabiat bog'i, "Saygachiyl" majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonasi bilan Qoraqalpog'istonlik jurnalist va blogerlar uchun "Ustyurt platosi"ga mediatur tashkillashtirildi.

Medieturning asosiy maqsadi OAV vakillarini respublikamizning o'ziga xos tabiatini, hududda joylashgan "Sariqamish" ko'li hamda «Janubiy Ustyurt» milliy tabiat bog'ini o'z ichiga olgan bir qancha ob'ektlar bilan tanishtirish, va shu orqali Ustyurt platosining jonli hayvonot dunyosini ko'rsatish.

Media turning dastlabki kunida ishtirokchilar «Sariqamish» ko'liga tashrif buyurdi. Ma'lumki, mazkur ko'lning taxminan 70% Turkmaniston, 30% O'zbekiston Respublikalari hududida joylashgan. Ko'lda do'ngpeshona, tovonbaliq, moybaliq, qizilko'z balig'i, sudak va ilonbosh kabi baliq turlari mavjud.

«Sariqamish» ko'lining suvi, havosi kishini o'ziga ohangraboday rom etadi. To'lqinlarning qirg'oqqa urilishi, uning shovullagan ovozi bir muddat jim turib eshitishga majbur qiladi. Shu orada qushlarning ovozi to'lqinlarga jo'r bo'ladi. Bunday ajoyib hissiyot uyg'ota oladigan tabiyat Ustyurtda mavjud.

Image not found or type unknown




Bilamizki, Ustyurt platosida O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan hayvonlar yashaydi. Media tur ishtirokchilari ana shunday noyob jonivorlardan jayron, qulon, ustyurt qo'yisi (arqal) bundan tashqari tulki, bo'ri, qarsaq, ilon, yovvoyi g'oz, yo'rg'a tuvaloq, ukki, oqqushlar kabi hayvonot dunyosiga jonli guvoh bo'lismishdi. Bepoyon Ustyurtning keng bag'rida erkin yashayotgan bu jonivorlar «Janubiy Ustyurt» milliy tabiat bog'i muhofazasida. Afsuski, hamon brakonerlar tomonidan ularning ovlanishi kuzatilmogda. Avtomobilda ularga yaqin borib rasmga olishga harakat qildik ammo, keng Ustyurtni makon qilgan jonivorlar bizni 2-3 kilometrdan payqab qochishga tushishdi. Ular qaydan bilsin bizning faqat rasmga olishga borganimizni. Lekin shunday bo'lsa ham rasmga olishga erishdik.



Media turning navbatdagi qismida OAV vakillari Ustyurt platosining uchta mamlakatni birlashtirgan nuqtasi "Qoplonqir" xududigayo'l olishdi. Mazkur hudud ko'rinishi jihatidan ajralib turadi, baland-baland chinklar, bepoyon kengliklari ko'rgan insonlarni o'ziga mahliyo etib qo'yadi. Jurnalistlarni o'ziga jalb qilgan narsa-bu hududning nomi bo'ldi. Ma'lum qilinishicha, "Qoplonqir" deya nomlanishiga sabab bu erlarda qadimdan Qoplonlar yashagan va hali ham mavjudligi tahmin qilinib kelinmoqda.



 Image not found or type unknown

Tunni shu manzilda o'tkazib tongni qarshi oldik. Bu go'zallikni so'z bilan ta'riflash mushkul. Tongi Ustyurt havosi – undan to'yib nafas olib keyingi manzilga yo'l oldik. Noteks va olis yo'llar bizni biroz charchatgan bo'lsa da, jonivorlarni va go'zal tabiatni ko'rib hammasi esdan chiqdi.

Navbatdagi manzil "Qulontaqir" bo'ldi. Bu arning bepoyon tekisligi ham ko'rgan insonning hayratini oshirsa ajabmas.

 Image not found or type unknown

Ikki kunlik media tur davomida jurnalist va blogerlar tabiatning noyob ko'rnishlaridan bahramand bo'ldi, desak yangilishmaymiz. Bu erlarga hammaning ham qadami etmagan, hali to'liq o'rganilmagan. Media turning maqsadi esa Ustyurt va undagi go'zallikni ommaga tanitishdan va keng yoritishdan iborat edi.